

**BUDJET TASHKILOTLARIDA TAFTISH VA TEKSHIRISHNI
TASHKILLASHTIRISH MASALALARI**

Ismoilov Muhammadqodir Ulug'bek o'g'li

*Jamoat xavfsizligi universiteti,
magistratura tinglovchisi*

Annotatsiya

Mazkur maqolada budjet tashkilotlarida taftish va tekshirishni tashkillashtirish masalalari kompleks tarzda o'rganiladi. Budjet mablag'laridan maqsadli va samarali foydalanishni ta'minlashda taftish va tekshiruvlarning o'rni, ularning tashkiliy-huquqiy asoslari hamda amaliy mexanizmlari tahlil qilinadi. Tadqiqot jarayonida budjet tashkilotlarida moliyaviy nazoratning asosiy shakllari, taftish va tekshiruvlar orqali moliyaviy intizomni mustahkamlash imkoniyatlari hamda O'zbekiston Respublikasida amalda qo'llanilayotgan nazorat mexanizmlarining samaradorligi baholanadi. Tadqiqot natijalari budjet tashkilotlarida taftish va tekshirish tizimini takomillashtirish, moliyaviy qonunbuzarliklarning oldini olish va davlat moliyaviy resurslaridan oqilona foydalanishni ta'minlash bo'yicha ilmiy asoslangan xulosalar shakllantirishga xizmat qiladi.

Kalit so'zlar: budjet tashkilotlari, taftish, tekshiruv, moliyaviy nazorat, budjet mablag'lari, moliyaviy intizom, audit.

**ВОПРОСЫ ОРГАНИЗАЦИИ РЕВИЗИИ И ПРОВЕРОК В БЮДЖЕТНЫХ
ОРГАНИЗАЦИЯХ****Аннотация**

В данной статье комплексно рассматриваются вопросы организации ревизии и проверок в бюджетных организациях. Анализируется роль ревизий и проверок в обеспечении целевого и эффективного использования бюджетных средств, их организационно-правовые основы и практические механизмы. В ходе исследования оцениваются основные формы финансового контроля в бюджетных организациях, возможности укрепления финансовой дисциплины посредством ревизий и проверок, а также эффективность контрольных механизмов, применяемых в Республике Узбекистан. Результаты исследования способствуют формированию научно обоснованных выводов по совершенствованию системы ревизии и проверок в бюджетных организациях, предотвращению финансовых правонарушений и обеспечению рационального использования государственных финансовых ресурсов.

Ключевые слова: бюджетные организации, ревизия, проверка, финансовый контроль, бюджетные средства, финансовая дисциплина, аудит.

ISSUES OF ORGANIZING AUDITS AND INSPECTIONS IN BUDGETARY ORGANIZATIONS

Abstract

This article comprehensively examines the issues of organizing audits and inspections in budgetary organizations. The role of audits and inspections in ensuring the targeted and efficient use of budgetary funds, their organizational and legal foundations, as well as practical mechanisms are analyzed. The study evaluates the main forms of financial control in budgetary organizations, the possibilities of strengthening financial discipline through audits and inspections, and the effectiveness of control mechanisms currently applied in the Republic of Uzbekistan. The research findings contribute to the formulation of scientifically grounded conclusions aimed at improving the audit and inspection system in budgetary organizations, preventing financial violations, and ensuring the rational use of state financial resources.

Keywords: budget organizations, audit, inspection, financial control, budgetary funds, financial discipline, auditing.

Kirish

Hozirgi iqtisodiy islohotlar sharoitida davlat moliyaviy resurslaridan samarali foydalanishni ta'minlash budjet siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biri hisoblanadi. Budjet tashkilotlari davlat byudjeti mablag'lari hisobidan moliyalashtirilgani sababli, ularning moliyaviy faoliyati ustidan qat'iy va tizimli nazoratni tashkil etish zarurati yuzaga keladi. Ushbu jarayonda taftish va tekshiruvlar budjet mablag'larining qonuniyligi, maqsadliligi va samaradorligini ta'minlovchi asosiy nazorat shakllari sifatida muhim ahamiyat kasb etadi. Taftish va tekshirish orqali moliyaviy qonunbuzarliklar aniqlanadi, samarasiz xarajatlar qisqartiriladi va moliyaviy intizom mustahkamlanadi.

Budjet tashkilotlarida taftish va tekshiruvlarni samarali tashkil etish davlat moliyaviy nazoratining ajralmas qismi bo'lib, u iqtisodiy barqarorlik va ijtimoiy soha rivojiga bevosita ta'sir ko'rsatadi. Xalqaro tajriba shuni ko'rsatadiki, moliyaviy nazorat mexanizmlari yetarli darajada rivojlanmagan sharoitda budjet mablag'laridan maqsadsiz foydalanish va moliyaviy buzilishlar xavfi ortadi. Shu bois budjet tashkilotlarida taftish va tekshirishni tashkillashtirish masalalarini ilmiy jihatdan tahlil qilish dolzarb hisoblanadi.

Asosiy qism

Budjet tashkilotlari faoliyatida taftish va tekshiruvlar moliyaviy nazoratning asosiy shakllari bo'lib, ular orqali byudjet mablag'larining sarflanishi ustidan doimiy monitoring amalga oshiriladi. Taftish va tekshiruvlarning to'g'ri tashkillashtirilishi moliyaviy qonunbuzarliklarning oldini olish, samarasiz xarajatlarni aniqlash va moliyaviy boshqaruv sifatini oshirishga xizmat qiladi. Xalqaro tajriba shuni ko'rsatadiki, moliyaviy nazorat tizimi yetarli darajada rivojlanmagan davlatlarda byudjet mablag'larining maqsadsiz sarflanishi, korrupsiya va moliyaviy intizomsizlik holatlari keng tarqaladi

Taftish — 1) bo'lib o'tgan ish, hodisa va boshqa yuzasidan yoki haqiqiy ahvolni aniqlash maqsadida o'tkaziladigan tekshiruv; 2) korxona, kompaniya, tashkilot, muassasalar moliyaxo'jalik faoliyatini, mansabdor shaxslarning xizmat faoliyatini, hujjatlar, byudjet muassasalarida byudjetdan ajratilgan mablag'larning maqsadli sarflanishi; buxgalteriya yozuvlarining to'g'ri yuritilishini tekshirish; nazorat qilish omillaridan biri. Taftishning umumiy tartibi va vazifalari hukumat qarorlari va tegishli nazorat idoralarining qo'llanmalarida, kompaniya, firma ustavlarida belgilab ko'yiladi. Qonunlar, nizomlar, yo'riqnomalarga rioya qilinishi, hujjatlarning to'g'riligi va ularda haqiqiy ahvol obyektiv aks ettirilgani, qoidabuzarliklar, soliklarning to'g'ri to'langanligi, hujjatlar bo'yicha qayd etilgan tovarmoddiy boyliklarning mavjudligi taftish qilinadi. Rejalashtirilgan ishlarning bajarilishini tekshirish; xo'jalik operatsiyalarining qonunga muvofikligi, moliya va smeta intizomiga rioya qilinishini tekshirish; davlat yoki xo'jalik mulkining himoya qilinishini nazorat qilish, buxgalteriya hisobining to'g'riligi va buxgalteriya yozuvlarining sifatli rasmiylashtirilishini tekshirish muhim ahamiyatga ega. Vakolatli davlat organlari, maxsus audit firmalari, aksiyadorlik jamiyatlarining taftish komissiya (qo'mita)lari tomonidan o'tkaziladi¹.

Tekshirish — xo'jalik yurituvchi subyektlar tomonidan qonunlar hamda o'z faoliyatini tartibga soluvchi boshqa qonunchilik hujjatlari qanday bajarilayotganligini nazorat qiluvchi organlarning bir marta nazorat qilishi

Budjet mablag'laridan foydalanilishini nazorat qilish ham budjetdan ajratiladigan xarajatlarni mablag' bilan ta'minlash jarayonida (joriy nazorat), ham budjet tashkiloti tegishli xarajatlarni qilgandan keyin (keyinchalik nazorat qilish) amalga oshiriladi.

Budjet mablag'laridan foydalanilishini nazorat qilish budjetdan mablag' bilan ta'minlashning belgilangan normativlari va limitlari, davlat budjeti daromadlari va xarajatlarining amaldagi tasnifnomasi, tegishli budjetlarning tasdiqlangan parametrlari, tasdiqlangan shtat jadvallari va belgilangan tartibda ro'yxatdan

¹ O'zbekiston milliy ensiklopediyasi ma'lumotlari.

o'tkazilgan budget tashkilotlari xarajatlari smetasi, mazkur Tartibning qoidalari va boshqa qonun hujjatlari asosida amalga oshiriladi.

Budget tashkilotlari tomonidan mablag'larning sarflanishini, shu jumladan Budget tashkilotini rivojlantirish jamg'armasi mablag'laridan maqsadli foydalanilishini nazorat qilish O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligining Nazorat-taftish bosh boshqarmasi, uning hududiy organlari va joylardagi moliya organlari tomonidan qonun hujjatlari bilan berilgan vakolatlarga muvofiq amalga oshiriladi.

O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi va tegishli hududiy moliya organlari quyidagi huquqlarga ega:

- budgetdan mablag' bilan ta'minlanadigan tashkilotlardan budgetni rejalashtirish, mablag' bilan ta'minlash, tegishli tashkilot tomonidan budget intizomiga rioya etilishini nazorat qilish uchun zarur bo'lgan hisobot ma'lumotlarini so'rash;
- kredit muassasalaridan ularning ustavlariga muvofiq budget tashkilotlarining operatsiyalari va hisobvaraqlari to'g'risidagi ma'lumotlarni olish;
- tashkilotlar tomonidan mablag'lar g'ayriqonuniy sarflanganda, budget intizomi buzilishi hollari aniqlangan taqdirda, shuningdek ilgari ajratilgan mablag'lardan foydalanish to'g'risidagi hisobotlar va boshqa belgilangan hisobot taqdim etilmaganda, bu haqda tegishli vazirliklar (idoralar), hokimliklar rahbarlarini xabardor qilgan holda tashkilotlarni budgetdan mablag' bilan ta'minlashni cheklash va zarur hollarda to'xtatib qo'yish;
- budget tashkilotlarining moliyaviy faoliyatini taftish qilish va tekshirish;
- aniqlangan qonunbuzishlarni bartaraf etish bo'yicha chora-tadbirlar bajarilishini tekshirish;
- amaldagi qonun hujjatlari buzilgan taqdirda tekshirish materiallarini huquqni muhofaza qilish organlariga berish.

Budget tashkilotlarida taftish va tekshirishni tashkillashtirish davlat moliyaviy nazoratining muhim tarkibiy qismi bo'lib, u davlat byudjeti mablag'laridan foydalanish jarayonida qonuniylik, maqsadlilik va samaradorlikni ta'minlashga xizmat qiladi. Budget tashkilotlari davlat tomonidan moliyalashtirilgani sababli, ularning moliyaviy faoliyati ustidan doimiy va tizimli nazoratni amalga oshirish zarurati mavjud. Ushbu nazorat mexanizmlarining asosiy shakllari sifatida taftish va tekshiruvlar namoyon bo'lib, ular orqali moliyaviy intizomni mustahkamlash va moliyaviy qonunbuzarliklarning oldini olish imkoniyati yaratiladi.

O'zbekiston Respublikasida budget tashkilotlarida taftish va tekshiruvlarni tashkil etishning huquqiy asoslari Byudjet kodeksi, Hisob palatasi va Iqtisodiyot va moliya vazirligi faoliyatini tartibga soluvchi me'yoriy hujjatlar, shuningdek, vazirlik va idoralarining ichki buyruqlari bilan belgilanadi. Ushbu hujjatlarga muvofiq, taftish va tekshiruvlar budget mablag'larining sarflanishi, moliyaviy hisobotlarning

ishonchliligi, shartnomaviy majburiyatlarning bajarilishi va moliyaviy intizomga rioya etilishi ustidan nazoratni amalga oshirishga qaratilgan.

Budjet tashkilotlarida eng ko'p uchraydigan moliyaviy buzilishlar xarajatlar smetasiga rioya qilmaslik, davlat xaridlari jarayonidagi kamchiliklar, buxgalteriya hisobining noto'g'ri yuritilishi va moliyaviy hisobotlarning kechiktirib topshirilishi bilan bog'liq. Ushbu holatlar taftish va tekshiruvlar orqali aniqlanib, ularni bartaraf etish bo'yicha tegishli choralar ko'rilmoqda. Shu bilan birga, tekshiruv natijalari bo'yicha berilgan ko'rsatmalarning to'liq ijro etilmasligi ayrim hollarda taftish va tekshiruvlarning yakuniy samaradorligini pasaytirayotganini ko'rsatadi.

Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, ichki audit tizimi samarali yo'lga qo'yilgan budjet tashkilotlarida tashqi taftish va tekshiruvlar natijasida aniqlanadigan moliyaviy kamchiliklar sezilarli darajada kamroq bo'ladi. Bu ichki auditning profilaktik funksiyasini tasdiqlaydi va uni taftish va tekshiruvlarni to'ldiruvchi muhim mexanizm sifatida baholash imkonini beradi².

Shuningdek, raqamli texnologiyalarning joriy etilishi budjet tashkilotlarida taftish va tekshiruvlarni tashkillashtirishda muhim omilga aylanmoqda. "Elektron byudjet", "G'aznachilik axborot tizimi" va masofaviy audit platformalarining joriy etilishi moliyaviy operatsiyalarni real vaqt rejimida kuzatish imkonini yaratdi. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, raqamlashtirish jarayoni moliyaviy xatoliklarni erta aniqlash, inson omili ta'sirini kamaytirish va taftish jarayonlarining shaffofligini oshirishga xizmat qilmoqda³.

Rivojlangan mamlakatlarda budjet tashkilotlarida taftish va tekshiruvlar riskka asoslangan yondashuv asosida tashkil etiladi. Bu yondashuv moliyaviy xatarlar yuqori bo'lgan yo'nalishlarga e'tiborni kuchaytirish imkonini beradi. O'zbekistonda ham ushbu yondashuvni joriy etish bo'yicha dastlabki qadamlar tashlanayotgan bo'lsa-da, uni to'liq amaliyotga tatbiq etish zarurati saqlanib qolmoqda⁴.

Budjet tashkilotlarida taftish va tekshiruvlarni samarali tashkillashtirish moliyaviy intizomni mustahkamlash, byudjet mablag'laridan oqilona foydalanishni ta'minlash va davlat moliyaviy nazoratining natijadorligini oshirishga xizmat qiladi. Shu bilan birga, mavjud tashkiliy va metodik muammolarni bartaraf etish, raqamli nazorat mexanizmlarini keng joriy etish va ichki audit tizimini kuchaytirish asosiy vazifalardan biri bo'lib qolmoqda.

Xulosa

O'tkazilgan tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, budjet tashkilotlarida taftish va tekshirishni samarali tashkillashtirish davlat moliyaviy nazoratining muhim

² INTOSAI. Guidelines on Internal Control Standards for the Public Sector.

³ World Bank. Digital Public Financial Management Systems.

⁴ MF. Public Financial Management and Risk-Based Audit.

yo‘nalishlaridan biri bo‘lib, u davlat byudjeti mablag‘laridan foydalanish jarayonida qonuniylik, maqsadlilik va samaradorlikni ta‘minlashda hal qiluvchi ahamiyatga ega. Budget tashkilotlari davlat tomonidan moliyalashtirilgani sababli, ularning moliyaviy faoliyati ustidan doimiy va tizimli nazoratni amalga oshirish zarurati mavjud bo‘lib, aynan taftish va tekshiruvlar ushbu nazorat mexanizmining asosiy amaliy vositasi sifatida namoyon bo‘ladi.

Budget tashkilotlarida aniqlanayotgan moliyaviy qonunbuzarliklar asosan xarajatlar smetasiga rioya qilmaslik, buxgalteriya hisobining noto‘g‘ri yuritilishi, davlat xaridlari jarayonidagi kamchiliklar hamda ichki nazorat tizimining sustligi bilan bog‘liq. Ushbu holatlar taftish va tekshiruvlar orqali aniqlanib, ma‘lum darajada bartaraf etilayotgan bo‘lsa-da, ularning takrorlanishi moliyaviy nazoratning profilaktik funksiyasi yetarli darajada ishlamayotganini ko‘rsatadi. Bu esa taftish va tekshiruvlarni faqat aniqlovchi emas, balki oldini oluvchi mexanizm sifatida yanada kuchaytirish zaruratini yuzaga keltiradi.

Tadqiqot natijalari budget tashkilotlarida taftish va tekshiruvlarni tashkillashtirish tizimini yanada takomillashtirish zarurligini ko‘rsatadi. Taftish va tekshiruvlarning huquqiy, tashkiliy va metodik jihatlarini uyg‘unlashtirish, ichki audit tizimini kuchaytirish hamda raqamli nazorat mexanizmlarini keng joriy etish davlat moliyaviy nazoratining samaradorligini oshirishga, byudjet mablag‘laridan oqilona foydalanishni ta‘minlashga va mamlakatning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishiga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O‘zbekiston Respublikasi Budget kodeksi.
2. O‘zbekiston Respublikasining O‘RQ-677-son “Auditorlik faoliyati to‘g‘risida”gi Qonuni, 25.02.2021 yil.
3. O‘zbekiston Respublikasining O‘RQ-546-son “O‘zbekiston Respublikasining Hisob palatasi to‘g‘risida”gi Qonuni, 01.07.2019 yil.
4. O‘zbekiston Respublikasining O‘RQ-717-I-son “Xo‘jalik yurituvchi subyektlar faoliyatini davlat tomonidan nazorat qilish to‘g‘risida”gi Qonuni, 24.12.1998 yil.
5. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining PF-6300-son “Davlat moliyaviy nazorati tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi farmoni, 27.08.2021 yil.
6. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining PF-252-son “Davlat auditi va moliyaviy nazorati faoliyatini yanada takomillashtirishga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi farmoni. 18.12.2025 yil.
7. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 414-son “Budget tashkilotlarini mablag‘ bilan ta‘minlash tartibini takomillashtirish to‘g‘risida”gi qarori, 03.09.1999 yil.
8. <https://www.intosai.org>
9. <https://president.uz>
10. <https://ach.gov.uz>